

АХОЛИНИ ТОЗА ИЧИМЛИК СУВИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ ЖАДАЛЛИК КАСБ ЕТГАН



АХОЛИНИ ТОЗА ИЧИМЛИК СУВИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ ЖАДАЛЛИК КАСБ ЕТГАН

Tumanimiz miqyosida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlari davom etmoqda. 1-sektorning Qal'acha mahallasida bu ishlar ayniqsa, jadallik kasb etgan.

Mahalla raisining bizga bergan ma'lumotiga ko'ra, "Yangi hayet" firmasiga xodimlari tomonidan mahallaning "Bunyodkor" ko'chasiga 400 metr, "Qal'acha" ko'chasiga 580 metr, "Objuvoz" ko'chasiga 120 metr, hamda "Mehnatkash" ko'chasiga 400 metr suv tarmog'i tortildi.

Jami hozirgi kungacha Qal'acha mahallasidagi ichki ko'chalarga 1 500 metr masofaga ichimlik suvi tarmog'i tortib bo'lindi.

- Mahalla axli Prezidentimizning e'tiboridan mamnun va minnatdor, - deya yozmoqda bizga Fayoziddin Tojiddinov - Qal'acha mahalla fuqarolar yig'ini raisi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-26 17:55:02